

PAPER

O‘ZBEKISTON TARIXIDA QO‘LLANILGAN DORIVOR O‘SIMLIKLAR

Muydinova Muslimaxon Murodjon qizi^{1,*}

¹ Farg‘ona davlat universiteti, biologiya yo‘nalishi 25.56–guruh talabasi.

* muydinova987@gmail.com

Abstract

Ushbu maqola O‘zbekiston tarixida, asosan tabobatida qo‘llanilgan dorivor o‘simliklarning bugungi kundagi ahamiyati va o‘tgan asrlar tabobatida kasalliklarga qarshi foydalanilgan dorivor o‘simliklar o‘rniga, bugungi kunda nimalardan ko‘proq foydalanilyotganini yoritib beradi.

Key words: dorivor o‘simliklar, barg, meva, urug‘, tabobat, vegetativ, generativ, tabiiy resurs.

Kirish

Yer yuzining, ya‘ni tabiatning muhim qismi bu flora (o‘simliklar dunyosi) hisoblanadi. O‘simliklar tuproq unumdorligini ta‘minlash bilan birga, biz insonlarni ham davolash xususiyatiga ega. Bular dorivor o‘simliklardir. O‘simliklardan bugungi kunda juda kam foydalanilmoqda. Ya‘ni insonlar, organizmlarga zarar yetkazmagan holda, tabiiy yo‘l bilan, asta-sekin davolanishni emas balki, tezroq va kasal organizmni davolash bilan birga sog‘ organizmga ham ma‘lum bir darajada zarar keltiradigan dori vositalaridan ko‘proq foydalanishmoqda.

Asosiy qism

O‘zbekiston florasida 4,3 mingdan ortiq o‘simliklarning 750 turi dorivor hisoblanadi.

Bundan 112 turdagi dorivor o‘simliklar tibbiyotda foydalanish uchun ro‘yxatga olingan. Ularning 80 foizini tabiiy holda o‘suvi o‘simliklar tashkil qiladi. 70 turdagi dorivor o‘simliklar farmatsevtika sanoatida keng qo‘llanilib kelinmoqda. (2021-yil ma‘lumotlariga ko‘ra.) O‘simliklar murakkab tuzilishga ega bo‘lgan jonli, tabiiy kimyoviy laboratoriya bo‘lib, oddiy noorganik moddalardan murakkab organik moddalar hosil qilish xususiyatiga ega. Dorivor o‘simliklarning quritilgan o‘ti, mevasi, urug‘i, ildizi, kurtagi, po‘stlog‘i, bargi, piyozi, tugunagi umumiy qilib aytganda vegetativ va generativ organlaridan dori-darmon tarzida foydalaniladi. Ma‘lumotlarga ko‘ra Turon zaminida uchraydigan o‘simliklarning nomi dastlab zardushtiylarning “Avesto” kitobida tilga olingan. Keyinchalik Ar-Roziy, Ibn Sino, Beruniy, Yusufiy, kabi allomalar va hakimlar kitobida fors

Compiled on: November 18, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Environment* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

va arab tillarida va qisman mahalliy tilda bayon etilgan. Bu nomlar keyinchalik o'simliklarni ilmiy nomlanishida o'z ifodasini topgan. XVIII asr o'rtalarida shved olimi Karl Linney (1707-1778) tomonidan o'simliklarning ilmiy nomlari (turkum va tur) lotin tilida tartibga solinib, bu binar (qo'sh) nomlar hozirga qadar dunyo olimlari tomonidan qo'llanib kelinmoqda. Adabiy manbalarda Ossuriya, Misr, Hindiston va Xitoyda eramizdan avvalgi 3000-yillarda dorivor o'simliklardan foydalanilganligi ham qayd etilgan. Miloddan avvalgi 3216-yilda Xitoy imperatori Shennon tibbiyotga oid "Bentsao" ("Gerbalist") asarini yozgan bo'lib, uning muhim qismi o'simliklar bilan davolash usullarini tavsiflashga bag'ishlangan. An'anaviy Xitoy tabobati 1500 dan ortiq o'simliklardan foydalangan, eng ko'p ishlatiladiganlari astragalus, ginseng, zanjabil, dolchin, schisandra chinensis, piyoz, mandarin po'stlog'i, miyanyona va boshqalardir. Shuningdek, O'zbekiston tarixining tabobati ham juda kuchli va keng tarqalgan tabobatlaridan biri bo'lgan. Buni isbotini esa biz bobo-kalonlarimiz asarlarida yozib qoldirgan o'simliklar haqidagi ma'lumotlardan bilib olishimiz mumkin. Masalan: Ibn Sinoning "Al-Qonun fit-tibb", "Kitob ush-shifo" va Abu Rayhon Beruniyning "Kitob as-Saydana fit-tibb" nomli asarlarida ko'pgina dorivor o'simliklarni tavsiflab, ularning shifobaxsh xususiyatlarini ko'rsatib o'tishganini guvohi bo'lishimiz mumkin. O'zbekiston tabobatida qo'llanilgan dorivor o'simliklarga oddiy qarag'ay, oddiy zirk, zaharli ayiqto'von, kichik sanchiqo't, lolaqizg'aldoq, sharq qora qayini, maymunjon va boshqalar kiradi.

Oddiy qoraqarag'ay-Pisea abies (L.) Karst

Qarag'aydoshlar- Pinaceae oilasiga mansub ko'p yillik, 30-50 m balandlikdagi daraxt. Poyasi qo'ng'ir qizil, plyonkasimon qobiq bilan o'ralgan. Barglari 13-25 mm uzunlikda, o'troq, uchli. Erkak gullari 20-27 mm uzunlikda bo'lib, o'tgan yilgi novdalarda hosil bo'ladi. Urg'ochi (gullar) g'uddalar o'tgan yilgi novdalarning ustki qismida joylashadi va 10-16 sm uzunlikda. O'zbekistonning barcha viloyatlarida bog'lar, yo'l yoqalariga ekiladi. Kurtak va g'uddasi ishlatiladi. Ular mikroblarga qarshi, spezmaltik ta'sir qilish xususiyatiga ega. Barglarining damlamasi terlatuvchi, siydik va o't haydovchi xususiyatiga ega.

Oddiy zirk (qoraqat)-Berberis vulgaris L.

Zirkdoshlar- Berberidaceae oilasiga mansub ko'p yillik, uncha baland bo'lmagan (2m) buta. Barglari etli, qisqa bandli, teskari tuxumsimon-ovalsimon yoki teskari tuxumsimon-nashtarsimon, chetlari kipriksimon tishchali, 2-5 sm uzunlikda va eni 1-2,5 sm. Gullari shingillari tik turuvchi va siyrak gulli. Mevalari uzunchoq, elipssimon, to'q qizil. Bog'lar va ko'kalamzorlashtirish maydonlarida manzarali o'simlik sifatida ekiladi. Barg va ildizlaridan tayyorlangan damlamalari surunkali gepatit, gepatoxolestisistit, o't xastaligini tosh kasalligida qo'llaniladi.

Zaharli ayiqto'von-Ranunculus sceleratus L.

Ayiqtovondoshlar-Ranunculaceae oilasiga mansub bir yillik yoki efemer tur. Poyasining balandligi 20-45 sm, shoxlangan, egatchali, ko'p sonli gularga ega. Barglari bir nechta, etli, yaprog'i buyraksimon, yumshoq, uch panjali bo'laklarga ega. Gullari 7-10 mm enlikda, kosachasi pastga egilgan, tojbarglardan uzun. Tojbargi 5-6 tadan, changchilari bilan teng. Urug'lari 1-1,3 mm uzunlikda. Aprel-iyunda gullab, urug'laydi. Daryoning oqiziq qumlarida, botqoq joylarda, o'zlashtirilgan joylarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro va Surxondaryov viloyatlarida tarqalgan. Maydalab tuyilgan barglaridan tayyorlangan quyuq malham muskul va suyaklar og'rig'ida bog'lanadi.

Lolaqizg'aldoq-Roemeria refracta D.C.

Ko'knoridoshlar-Papaveraceae oilasiga mansub bir yillik, efemer o'simlik. Poyasi asos qismidan, shoxlanuvchi va balandligi 8-50 sm. Ildiz bo'g'zidagi va poyaning yarmigacha bo'lgan burglar bandli, yuqoridagilari bandsiz, yaprog'i tuxumsimon, nashtarsimon bo'lib, chetlari ichkari tomonga bir oz bukilgan. G'unchasi tuxumsimon yoki yumaloq bo'lib, 1,5-2 sm eni 0,9-1 smni tashkil etadi. Gultojlari 2-3 sm uzunlikda va eni 1,5-4 sm to'q qizil, ostki tomonida oq dog'lari kuzatiladi. Aprel-iyun oylarida gullab, urug'lari yetiladi. Toshkent, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatlarida, tog' oldi tumanlarida uchraydi. Ko'z og'rig'ida, quyosh urganida, tinchlantiruvchi, mikroblarga qarshi shifobaxsh malham sifatida ishlatiladi.

Dorivor momaqaymoq yoki dala qoqi o'ti (lotincha: *Taraxacum officinale*) – momaqaymoq jinsining keng tarqalgan turi.

Momaqaymoq – o'rmon-dasht zonasida

keng tarqalgan o'simliklardan biri. Rossiyaning Yevropa qismida, Ukraina, Belorussiya, Kavkaz, Moldova, Uzoq Sharq, Saxalin, Kamchatka, Markaziy Osiyo, Sibirning dalalarida, bog'larida, oromgohlarida, ochiq joylarida, yo'llar yaqinida o'sadi. Momaqaymoq uzunligi 60 sm gacha bo'lgan ko'p yillik o'simlik bo'lib, qalinligi taxminan 2 sm, yoyilgan ildizpoyaga ega, yuqori qismida kalta ko'p boshli ildizpoyaga ajralgan. Momaqaymoq barglari uzun, kesilgan yoki butun, nayzasimon yoki cho'zinchoq nayzasimon, tishli, uzunligi 10–25 sm, kengligi 1,5–5 sm bo'ladi. Mevasi kulrang-jigarrang tutamli urug' bo'lib, oq shoxlanmagan tuklardan tashkil topgan. Urug'lari juda nozik va shamol bo'lsa osongina tarqalib ketadi. O'simlikning barcha qismlarida achchiq ta'mli qalin oq sutli sharbat bor. Momaqaymoq urug'lari bahor faslining birinchi haftasida unib chiqadi. Birinchi davrida unib chiqqan o'simlik ildizi va barglarini hosil qiladi. Gullash va meva berish ikkinchi davrida boshlanadi. Momaqaymoq may–iyun oylarida gullaydi, ba'zida kuzgi gullash ham kuzatiladi va may oyining oxiridan iyulgacha meva beradi. Momaqaymoq gulchang va nektarning yaxshi manbaidir. Tabobatda momaqaymoqning ildizidan, bargidan, sharbatidan dorivor o'simlik sifatida foydalanadi. Barglar, sharbatlar iyun oyida – erta bahorda yoki kech kuzda barglarning so'lishi bosqichida yig'ib olinadi, quritgichlarda 40–50 ° S haroratda quritiladi. Momaqaymoq – g'ozlar va shimol bug'ulari, Yevropa loslari uchun yaxshi ozuqa. Momaqaymoq gepatit, xolesistit, xolelitiyoz, sariq kasal, gastrit, kolit, sistitni davolashda, ishtahani va ovqat hazm qilishni yaxshilashda, ich qotishi, meteorizm kasalliklarining oldini olishda foydalaniladi. Aterioskleroz, teri kasalliklari, vitamin C tanqisligi va anemiyani davolash uchun yangi barglaridan sharbat tavsiya etiladi. Ildizlari bilan birga o'simlikdan jigar va o't pufagining turli kasalliklari, o'smalar, tomchilar, siydik tosh kasalligi uchun ishlatiladi. Bundan tashqari o'simlikdan vitamin yetishmasligi uchun, turli xil teri kasalliklari: toshmalar uchun ham qo'llaniladi. Xitoy xalq tabobatida momaqaymoqning barcha qismlari antipiretik, diaforetik, tonik sifatida, shuningdek, ilon chaqishi, emizikli onalarda laktatsiyani kuchaytirish, limfa tugunlarining yallig'lanishi va boshqa teri kasalliklari uchun ishlatiladi.

Pardozdagi xususiyatlari

Momaqaymoq xalq kosmetikasida ham keng tarqalgan: uning yangi barglaridan iborat niqob terini oziqlantiradi, namlaydi va yoshartiradi, sepkil va dog'larni kamaytirishga yordam beradi.

Xulosa

Mening fikrimcha, o'simliklar nafaqat o'tgan asrlar tabobatida, balki hozirgi kun tibbiyotida ham muhim o'rinni egallaydi. Hozirgi kunda ham insonlar tabiiy holda davolanish usullarini tanlamoqdalar. Biz ko'proq o'simliklardan foydalanishimiz kerak, chunki bizning ajdodlarimiz aynan shuning uchun o'simliklarni foydali va qaysi kasalliklarga davo ekanligini aniqlab, yozib qoldirib ketishkan. Biz avlodlar aynan shu o'simliklar orqali, tabiiy yo'l bilan davolanishimiz uchun. Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'zining "Boburnoma" asarida o'simliklar dunyosi va tabiat haqida turli ma'lumotlar keltirgan. Asarda "Farg'ona vodiysini don–duni ko'p, mevasi farovon. Qovun va uzumi yaxshi bo'ladi. Andijonning noshvatisidan yaxshiroq noshvati (anjir) bo'lmaydi", –degan fikr bor. Asarda o'simliklar joyning iqlimi, tabiati, odamlar hayoti bilan bog'liq ravishda tasvirlangan. O'simliklar insonlar uchun doimo muhim va kerakli bo'lgan tabiiy resurs bo'lib qoladi. Tarixda ham, bugungi kunda ham.

Adabiyotlar ro'yxati

1. M.T. Isag'aliyev S. Meliboyev, Z.J. Isomiddinov, M.V. Obidov "Dorivor o'simliklar biologiyasi va ekologiyasi" / "Classic" nashriyoti-2021y./346b.
2. V. Karimov, A. Shomaxmudov, "Xalq tabobati va zamonaviy ilmiy tibda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar", "Ibn Sino" nashriyoti, darslik. Toshkent, 1993-y./308b.
3. I.M. Kultiyasov, X.M. Oxunov "O'simliklar ekologiyasi". Toshkent/1990-y./375b.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bosh-Sahifa>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Dorivor-momaqaymoq>